Ijtimoiy pedagog faoliyatida innovatsion yondashuvlar	656
<i>Bahriddinova Gavhar Oydinova</i>	
Ta'lim tizimida deontologik yondashuvlarning pedagogik imoniyatlari.....	659
<i>Boboxujayev Johnomirzo Umar o'g'li</i>	
Zamonaviy ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan inklyuziv yondashuv.....	662
<i>Djurayeva Hurshida</i>	
Libos va aksessuarlar orqali milliy estetik didni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari	666
<i>Doniyorova Shahnoza Erkin qizi</i>	

Mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish bosqichlari mazmuni	672
Dosbayeva Shahnoza Abdurahimovna	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tili o'rgatishning pedagogik-psixologik asoslari.....	675
Ergasheva Xilola Yunusxonovna	
Use of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language for Uzbekistan General Schools.....	679
Feruza Zokirova Adham qizi	
Efferent motor afaziya va uni bartaraf etish yo'llari.....	682
G'anieva Gulrux Tavakkaljon qizi	
O'quvchilarda ekologik kompetensiyani shakllantirish: biologiya darslarida global ekologik muammolar tahlili.....	686
Ibragimova Sitara Akmal qizi	
Ba'zi 3D-metallarining 2-amino-5-allitio-1,3,4-tiadiazol bilan kompleks birikmalarini o'rganish	690
Jumaniyazova Gulxumar Karimbayevna	
Tizimli bilish kompetentligining mazmuni va uning maktabgacha ta'limdagi o'rni	696
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
O'qituvchilik mahorati va axloqiy madaniyatning mushtarakligi.....	700
Nabiyev Islom Karimovich	
Qarshi shahrida turizm menejerlarining kasbiy malakasini uzluksiz takomillashtirishni ta'minlash	706
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida moslashuvchan kompetensiyalarni shakllantirishning metodik asoslari....	710
Nuriddinova Diyora Isaqali qizi	
Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari.....	714
Pardayev Asror Ikromovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi	718
Qayumova Mahfuzaxon Alisher qizi	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidlarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirish metodikasi (Temurbeklar maktablari misolida)	724
Quldashev Murodjon G'aniyevich	
Bugungi voleybolda to'p uzatish texnikasi va aniqligini 13–14 yoshdan boshlab aylanish harakatlari ta'sirida shakllantirish afzalligi	727
Rejapov O'tkirbek G'ayratjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bolalar o'yin folklorini o'rgatishda tolerantlikni rivojlantirishning metodik usullari va texnologiyalari.....	733
Ro'ziboyeva Madina Salimovna	
Pedagogik muloqot tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	737
Ro'zimatova Maxpuza	
Intellektual qadriyatlarning talaba yoshlar aksiologik hayotiy pozitsiyasini shakllantirishdagi roli	743
Rustam Latipov Mamadaliyevich	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda AI-platformalarni integratsiyalashning amaliy mexanizmlari	747
Rustamov Kamoliddin Ziyodillo o'g'li	
Maktab biologiya ta'limida individuallashtirish texnologiyasidan foydalanish metodikasi.....	754
Savutova Malohat Erkinovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning turizm sohasiga bo'lgan munosabatini o'rganishning ijtimoiy-pedagogik metodikasi.....	760
Shodiyorov Rustam Xasan o'g'li	
Bo'lajak harbiy xizmatchilarda deontologik yondashuvlar asosida raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish.....	764
Soyibnazarov Baxtiyor Abdunazar o'g'li	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida umumiy yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotlar tizimini kasbiy faoliyatga yo'naltirishning dolzarb masalalari.....	770
Sultanova N. B.	
Ijtimoiy reabilitatsiyani amalga oshirishda tibbiy-psixokorreksion maslahat ishlar mazmuni.....	775
Suvanqulova Shaxnoza Karimqulovna	
Blokcheyn texnologiyasining ta'lim jarayonida qo'llanilishi va imkoniyatlari	780
Suyumov Jo'rabek Yunusaliyevich	



Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	783
<i>Tojibayeva Nazokatxon</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni	787
<i>To'xtasinova Nigoraxon Azizxon qizi</i>	
Oliy o'quv yurtlarida analitik kimyo fanini o'qitishning samaradorlik ko'rsatkichlari	793
<i>Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi</i>	
Antroposentrik yondashuv asosida o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo'llari	796
<i>Xamidova Nigora Ibrohimovna</i>	
Обучение говорению на русском языке абитуриентов с помощью настольных игр	800
<i>Абдулахадова Шохида</i>	
Особенности педагогической деятельности и их виды	803
<i>Мавжудова Ш. С., Мирходжаева Д.</i>	
Развитие критического мышления младших школьников на уроках читательской грамотности	808
<i>Мухаммадиева Марифат Мурод кизи</i>	
Искусство подбора слов: стилистические и семантические возможности перифраз	811
<i>Юлдашева Дилноза Бекмуродовна</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda refleksiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari	815
<i>Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna</i>	
The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise	818
<i>Ikramova Aziza Aminovna</i>	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati	823
<i>Ma'murova Farangiz Ne'matovna</i>	
O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi	827
<i>Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi</i>	
Ko'zi ojiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	830
<i>Qarshiboyev Asliddin</i>	
Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari	834
<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari	839
<i>Xolmatov Pardaboy Qoraboevich</i>	
Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора	844
<i>Азмиева Э. Э.</i>	
Мaktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati	851
<i>Xoldarova F. M.</i>	
Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	854
<i>Gulyamova Nafisa Burikulovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli	858
<i>Rizayeva Xusniya Ubayevna</i>	
Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli	861
<i>Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna</i>	
Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida	865
<i>Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna</i>	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida	868
<i>Boyqulov Azamat Maxram o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari	871
<i>Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi</i>	
Oliy badiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni	875
<i>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</i>	

EFFERENT MOTOR AFAZIYA VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

G'anieva Gulrux Tavakkaljon qizi

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Defektologiya yo'nalishi, 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Efferent motor afaziya – bu tilni ifodalash qobiliyatining buzilishi bo'lib, u ko'pincha miyaning motor markazlaridagi shikastlanishlar natijasida yuzaga keladi. Ushbu turdagi afaziya bemorlarning so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishi va nutqni aniq ifodalashida jiddiy qiyinchiliklarga olib keladi. Odatda, efferent motor afaziya Brokka mintaqasining (miyaning chap yarim shari, frontal lob) shikastlanishi bilan bog'liq bo'ladi, biroq tilni o'qish va tushunish qobiliyati nisbatan saqlanib qoladi. Maqolada efferent motor afaziyaning klinik tavsifi, sabablari va simptomlari, diagnostika usullari, davolash yondashuvlari hamda reabilitatsiya metodlari tahlil qilinadi. Tilni tiklash jarayonida logopedik yondashuvlar, fizioterapiya va kognitiv reabilitatsiya samarali bo'lishi mumkin. Shuningdek, zamonaviy tibbiy texnologiyalar va psixoterapevtik yordamning ahamiyati ham ko'rsatib o'tiladi. Davolash jarayonida bemorni ijtimoiy va psixologik qo'llab-quvvatlash katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Efferent motor afaziya, Brokka afaziyasi, motor afaziya, tilni ifodalash qobiliyati, reabilitatsiya metodlari, logopediya, miya shikastlanishlari, tibbiy reabilitatsiya, apraksiya, artikulyatsiya.

Abstract: Efferent motor aphasia is a disorder of expressive language ability, often caused by damage to the motor centers of the brain. This type of aphasia results in serious difficulties in patients' pronunciation of words and clear expression of speech. It is usually associated with damage to Broca's area (the left hemisphere, frontal lobe), while the patient's reading and comprehension abilities remain relatively preserved. This article provides a clinical description, causes and symptoms, diagnostic methods, treatment approaches, and rehabilitation methods for efferent motor aphasia. In the process of speech restoration, speech therapy approaches, physiotherapy, and cognitive rehabilitation may prove effective. The article also highlights the importance of modern medical technologies and psychotherapeutic support. Social and psychological support for the patient plays a crucial role during the treatment process.

Key words: Efferent motor aphasia, Broca's aphasia, motor aphasia, expressive language ability, rehabilitation methods, speech therapy, brain injuries, medical rehabilitation, apraxia, articulation.

Аннотация: Эфферентная моторная афазия – это нарушение способности к выражению речи, которое возникает преимущественно вследствие поражения моторных центров мозга. Данный тип афазии вызывает серьезные трудности у пациентов в произношении слов и четком выражении речи. Чаще всего эфферентная моторная афазия связана с повреждением области Брока (левая половина мозга, лобная доля), при этом способность к чтению и пониманию речи относительно сохраняется. В статье рассматриваются клиническая характеристика, причины и симптомы, методы диагностики, подходы к лечению и методы реабилитации при эфферентной моторной афазии. Восстановлению речи способствуют логопедические методы, физиотерапия и когнитивная реабилитация. Также подчеркивается роль современных медицинских технологий и психотерапевтической помощи. Социальная и психологическая поддержка пациента имеет важное значение в процессе лечения.


Ключевые слова: Эфферентная моторная афазия, афазия Брока, моторная афазия, способность к выражению речи, методы реабилитации, логопедия, поражения мозга, медицинская реабилитация, апраксия, артикуляция.

KIRISH

Efferent motor afaziya tilni ifodalashning murakkab buzilishlaridan biri bo'lib, odamning so'zlarni talaffuz qilish yoki yozish qobiliyatida jiddiy qiyinchiliklarga olib keladi. Ushbu afaziya turi, asosan, miya yarim sharlari orasidagi motor markazlarining shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Davolash jarayoni individual yondashuvni talab qiladi va bemorning holatiga qarab logopedik mashqlar, fizioterapiya, kognitiv reabilitatsiya kabi usullarni o'z ichiga oladi. Afaziya bilan kurashishda ilg'or tibbiy texnologiyalar va jarayonlarni qo'llash bemorning qayta tiklanish imkoniyatlarini yaxshilaydi. Efferent motor afaziya va uning bartaraf etilishidagi



muvaffaqiyatlar nafaqat tibbiy yordam, balki bemorning psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashini ham o'z ichiga oladi. Efferent motor afaziyada Brokka markazi lokal jarohatlanishi natijasida bemorning o'qish, yozish, talaffuzida bir harakatdan ikkinchisiga o'tishda buzilishlar bilan namoyon bo'ladi. Bemor kinetik apraksiya tufayli birinchi tovushli harakatdan ikkinchi harakatga o'tishga qiynaladi. Bemorni tekshirishda og'zaki nutqni tushunish saqlanganligi sababli, biror predmetni ko'rsat deyilganda bemor hatosiz barcha topshiriqlarni bajara oladi. Logoped bergan savollarga bemor o'zi tushunmagan holatda to'xtashlar bilan noaniq javob beradi. Bemor tovushlarni alohida-alohida talaffuz qila oladi va statik artikulyatsion mashqlarni bajara oladi. Logoped harakatli artikulyatsion mashqlarni boshlashi bilan bemor bu harakatlarni bajara olmaydi. Masalan: tilni tepaga, pastga, yonga harakatlantirish.



Efferent motor afaziya

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Efferent motor afaziya bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar nutq buzilishining neyropsixologik va lingvistik xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan. V. A. Апремов tomonidan nutq intonatsiyasining fonetik mexanizmlari o'rganilib, afaziya jarayonida artikulyatsion apparatning o'ziga xos buzilishlari alohida ta'kidlangan. Shuningdek, L. S. Выготский o'z tadqiqotlarida nutq va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka e'tibor qaratib, afaziya sharoitida ichki nutqning zaiflashuvi tilni tushunish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatishini qayd etgan.

Afaziya bilan kasallangan bemorlarni reabilitatsiya qilish bo'yicha T. V. Ахутина tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sintaksisning neyrolingvistik tahlili keng yoritilgan bo'lib, bemorlarda grammatik tizimning izdan chiqishi asosiy muammo sifatida qayd etilgan. E. S. Бейн va M. K. Бурлакова izlanishlarida esa afaziya bilan og'rikan bemorlarning nutqini qayta tiklashda logopedik mashqlar, fonetik trening va psixolingvistik yondashuvlar samarali ekanligi ko'rsatib berilgan.

Nutq buzilishlarini korreksiyalashda kompleks metodikalar muhim o'rin tutadi. Masalan, I. V. Блыскина logopedik massajning afaziya bilan og'rikan bemorlar uchun foydasini ta'kidlagan, chunki bu usul artikulyatsion apparat faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Shuningdek, B. S. Виленский va O. A. Балунув tadqiqotlarida insultdan keyingi davrda nutqni qayta tiklash jarayonida psixoterapiya va fizioterapiya usullari bilan bir qatorda logopedik mashg'ulotlar ham asosiy ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi efferent motor afaziya bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash va ularni ilmiy tahlil qilish jarayonini o'z ichiga oldi. Ma'lumotlar klinik kuzatishlar, logopedik mashg'ulotlar jarayonidagi yozuvlar, bemorlarning nutqiy faoliyatini baholash testlari hamda nevrologik tekshiruv natijalari asosida yig'ildi. Shuningdek, tibbiy hujjatlar, MRT va boshqa neyrodagnostik usullar orqali qo'shimcha dalillar olindi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, ularning o'zaro bog'liqligi, umumiy qonuniyatlari hamda reabilitatsiya samaradorligini aniqlashga qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ekspressiv nutq buzilishi

Efferent motor afaziyada qo'pol nutq buzilishi kuzatiladi. Bunda bemorda bosh miya qon aylanishining buzilishidan so'ng ilk bosqichda nutq butunlay bo'lmazligi mumkin. Afaziyaning bu shaklida artikulyatsion apparat apraksiyasi alohida tovushlarni takrorlashda emas, balki tovush yoki bo'g'in seriyalarini takrorlash qobiliyatini yo'qotishda o'z aksini ko'rsatadi. Bemor ularni ko'p marotaba takrorlaydi, tovush yoki bo'g'inlarning ikki seriyasini takrorlash iltimos qilinsa, tovush talaffuzi aktida hech qiyinmay avvalgi tovush yoki bo'g'in qatoridagi tovushlarni perseveratsiyalaydi.

Bu efferent motor afaziyaning eng murakkab ko'rinishidir. Bunda nomlash funksiyasi butunlay yo'qoladi, birinchi bo'g'in aytib yuborilganda esa, u avtomatizatsiyalanib tugashi yoki aynan shunday bo'g'indan boshlanuvchi boshqa so'zga o'tib ketish holati yuzaga keladi.

Masalan: predmetli rasmlarni nomlayotgan bemorga "qo" bo'g'inini aytib yuborsangiz, "qovun" so'zi o'rniga "qovoq", "qog'oz", "qoshiq" va h.k. so'zlarni talaffuz qiladi.

Tushunishning buzilishi

Efferent motor afaziyada tushunishning buzilishi negizida barcha nutqiy faoliyat ko'rinishlarining inert kechishi yotadi va ichki nutqning predikativ funksiyasi hamda "til sezgisi" deb nomlanuvchi buzilishlar namoyon bo'ladi.

Ko'proq efferent afaziyada perseveratsiyalar oddiy ko'rsatmalarni bajarishdayoq namoyon bo'ladi. Agar talaffuz qilinayotgan so'zlar orasida katta pauzalar qilinsa, tananing alohida qismlarini ko'rsatish qulay bo'ladi.

Biroq rasm, tana yoki yuz qismlarini ko'rsatish bo'yicha vazifalar tempining biroz tezlashuvida darhol perseveratsiyalar kelib chiqadi. Qayta iltimos qilinganda predmetli rasmlarni ko'rsatish bemorlar uchun katta qiyinchilik tug'diradi.

O'qish va yozuvning buzilishi

Afferent motor afaziyada yaqqol namoyon bo'lgan agraftiyalar kuzatiladi: so'z yoki iborani bir necha marotaba bo'g'inlab takrorlaganlaridan so'nggina yozadilar. Birmuncha og'ir ko'rinishlarda so'zni to'g'ri takrorlashda ham, nafaqat uni yozish, balki ajratib qo'yilgan kema harflardan tuzib berish imkoni ham bo'lmaydi. Hatto juda qisqa so'z harflarini ham to'g'ri tartibda joylashtirib bera olmaydilar, harflarning to'g'ri tartibi qiyinchilik bilan o'rnatiladi. Ko'pincha bemorlar kerakli harfni topa olmaydilar. Birmuncha yengil holatlarda bemorlar so'zni eshitib yozishlari mumkin, bunda ketma-ket kelgan undoshlarda unli yoki undoshlarni tushirib qoldiradilar, harf yoki bo'g'inlar o'rnini o'zgartiradilar. Masalan, "koptok" so'zi kptok, korok kabi yoziladi. Ko'pincha avvalgi so'z bo'g'inini qo'shib yozish, aynan bir bo'g'inni bir-ikki marta takror yozish kuzatiladi: "mashina" – "mashishina", "lavlagi" – "lalavlagi" va h.k.

Logopedik korreksion ish

Birinchi bosqich – bemorning ong ostida saqlanib qolgan nutqi qayta tiklanadi. Masalan: sanoq to'g'ri va teskari sanoq, hafta kunlari, oy, yil fasllari. 1,2,3,4,5 – 5,4,3,2,1 bu avtomatlashgan nutq qo'shiq qilib cho'zib aytiladi.

Ikkinchi bosqich – avtomatlashgan nutqdagi so'zlarni alohida talaffuz qilishga o'rgatish. Masalan: logoped 5 ta barmog'ini ochgan holatda "bu nechta?" deb so'rasa, bemor ichida 1,2,3,4 deb sanab, keyin "5" deydi.

Uchinchi bosqich – bemor uchun kundalik doimiy ishlatiladigan jummalarni yakunlashga o'rgatiladi. Masalan: "Karim o'g'lim, Xilola esa(qizim)". "Dasturxonni olib, burnimizni(artamiz)".

To'rtinchi bosqich – ot + fe'l jummalarni tuzishga o'rgatiladi. Masalan: "Anvar eshikni och".

Shu bilan birgalikda bemorning o'qish va yozish malakalari vertikal yozilgan holatda, bemorning chap qo'lini ishlatgan holda bo'g'inlar qatorini o'qish orqali shakllantiriladi.



Masalan:

G	O	O
U	N	T
L	A	A

Bemor uchun vertikal o'qish va yozish oson, shu sababli harflarning barchasi vertikal holatda yoziladi. Kesma bo'g'inlar qatoridan bemor mustaqil holda so'z tuzishi kerak va shu so'zni daftariga diktant qilib yozishi, jumla tuzishi lozim. Tuzgan jumlasini o'qib, logopedga qayta gapirishi talab qilinadi. Logoped bemor uchun krossvordlar tayyorlashi hamda muammoli vaziyat sifatida stolda yo'q narsani ko'rsatishi kerak.

Bemorning birinchi harakatdan ikkinchi harakatga o'tish tezligini yaxshilash uchun quyidagi savollar berilishi mumkin. Masalan: qoshiq chizilgan rasmni ko'rsatib, "Biz nima bilan ovqat yeymiz?" deb so'raladi. "Katta qoshiqni oldiga vilka emas, qoshiq qo'ying".

XULOSA VA TAKLIFLAR

Efferent motor afaziya (yoki Brokka afaziya) – bu tilni ifodalashning jiddiy buzilishi bo'lib, miyaning chap yarim shari, aniqrog'i, frontal lobdagi motor mintaqalarida yuzaga keladigan shikastlanishlar natijasida rivojlanadi. Ushbu holat bemorning so'zlarni talaffuz qilish qobiliyatini qiyinlashtiradi, lekin uning tushunish va o'qish qobiliyatlari saqlanadi. Efferent motor afaziya bilan kasallangan bemorlar tez-tez so'zlarni noto'g'ri talaffuz qiladilar yoki so'zlarni yig'ishtirib, qisqartirgan holda gapiradilar. Afaziya turlari orasida efferent motor afaziya, ehtimol, eng ko'p klinik e'tibor talab qiladiganlardan biridir, chunki bu turdagi afaziya ko'pincha boshqa neyropsixologik buzilishlar bilan birgalikda bo'ladi.

Efferent motor afaziyaning tashxisi va davolashining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun to'liq neyrologik va lingvistik tahlillar o'tkazilishi kerak. Dastlabki tashxisda bemorning nutqini va motor qobiliyatlarini baholash, shuningdek, miya tasvirlash usullari (masalan, MRT) yordamida shikastlanish joylarini aniqlash zarur. Davolashning samarali yondashuvlari orasida logopediya mashqlari, fizioterapiya va kognitiv reabilitatsiya metodlari mavjud. Bularning har biri bemorning individual holatiga qarab tanlanadi.

Reabilitatsiya jarayonida murakkab, interdisipliner yondashuv – neyrolog, logoped, psixoterapevt va fizioterapevtlarning hamkorligi juda muhimdir. Shuningdek, bemorning psixologik holatini tiklash va ijtimoiy adaptatsiyasini ta'minlash uchun psixoterapiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, efferent motor afaziyaning davolashida nafaqat fiziologik nuqtai nazar, balki psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ham inobatga olish zarur. Zamonaviy tibbiy texnologiyalar va metodlar, shuningdek, individual reabilitatsiya rejalarini bemorning tilni qayta tiklash imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Shuningdek, bemorning motivatsiyasi va o'z-o'zini tiklashga bo'lgan ishtiyoqi muvaffaqiyatli davolashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Артемов, В. А. Речевая интонация. Экспериментальная фонетика / В. А. Артемов // Вып. 3. – Минск, 2008. – С. 196–213.
2. Амосова, Н. Н., Каплина, Н. И. Практические упражнения для восстановления речи у больных после инсульта, черепно-мозговой травмы и других заболеваний головного мозга / Н. Н. Амосова, Н. И. Каплина. – Москва: АСТРЕЛЬ, 2009.
3. Ахутина, Т. В. Поражение речи. Нейролингвистический анализ синтаксиса / Т. В. Ахутина. – Москва: МГУ, 2009.
4. Бейн, Э. С., Бурлакова, М. К., Визель, Т. Г. Восстановление речи у больных с афазией / Э. С. Бейн, М. К. Бурлакова, Т. Г. Визель. – Москва: Медицина, 2002.
5. Блыскина, И. В. Комплексный подход к коррекции речевой патологии у детей. Логопедический массаж: методическое пособие для педагогов дошкольных образовательных учреждений / И. В. Блыскина. – Санкт-Петербург: Детство-Пресс, 2011.
6. Балунов, О. А., Кушниренко, Я. Н. Динамика функционального состояния больных, перенесших инсульт // Журнал неврологии и психиатрии. – № 6, 2000.
7. Виленский, Б. С. Инсульт: профилактика, диагностика и лечение / Б. С. Виленский. – Санкт-Петербург, 1999.
8. Выготский, Л. С. Собрание сочинений: в 6-ти томах. Т. 6. Научное наследство / под ред. М. Г. Ярошевского. – Москва: Педагогика, 1984. – С. 61.
9. Визель, Т. Г. Основы нейропсихологии / Т. Г. Визель. – Москва, 2006.
10. Визель, Т. Г. Как вернуть речь / Т. Г. Визель. – Москва: ТЦ Сфера, В. Секачев, 2005.
11. Волкова, Л. С. Логопедия / Л. С. Волкова. – Москва, 2016.
12. Изучение и коррекция речевых расстройств // Межвузовские статьи, научные труды. – [Электронный ресурс: <https://elibrary.ru/item.asp?id=25799424>].

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.